



## GAP BO‘LAKLARI VA ULARNING BOSHLANG‘ICH SINFLAR DARSLIKDA QO‘LLANILISHI

*Jo‘rayeva Sh.K.*

*FarDU bakalavr 3-bosqich talabasi*

**Tayanch so‘zlar:** gap, gap bo‘laklari, bosh bo‘lak, ikkinchi darajali bo‘lak, ega, kesim, aniqlovchi, hol, to‘ldiruvchi, predekativ.

**Ключевые слова:** придаточное предложение, придаточные предложения, главное предложение, второстепенное предложение, притяжательный падеж, причастие, определитель, падеж, дополнение, предикатив.

**Key words:** clause, clauses, primary clause, secondary clause, possessive, participle, determiner, case, complement, predicative.

Gapda ma’lum biror so‘roqqa javob bo‘lgan, o‘zaro tobe bog‘langan so‘z va so‘z birikmalari **gap bo‘lagi** deb nomlanadi. Gap bo‘laklarini belgilashda asosiy xususiyatlardan biri ular orasidagi sintaktik aloqadir. So‘zlarga so‘roq berish, ularning qaysi turkumga mansub ekanligi, gap ichida joylashish tartibi, qanday qo‘shimchalar olishi tom ma’noda gap bo‘laklarining turlarini belgilashda asos bo‘la olmaydi. Gap bo‘laklarining turlarini odatda bir-biriga nisbatan aniqlanadi: ega kesimga nisbatan, aniqlovchi aniqlanmishga nisbatan, hol hollanmishga nisbatan, to‘ldiruvchi to‘ldirilmishga nisbatan aniqlanadi. Nisbat beriluvchi bo‘lak bo‘lmas ekan, u yoki bu gap bo‘lagi haqida gapirish mumkin emas. Gap bo‘laklarining gap tarkibidagi o‘rni bir xil emas. Ba’zi gap bo‘laklari gap qurilishida asosiy o‘rinni egallaydi, bunda bo‘laklarsiz fikrni aniqlab bo‘lmaydi. Ayrim bo‘laklar esa gap qurilishida asosiy rol o‘ynamaydi, ularning ishtirokisiz ham bosh bo‘laklar orqali fikrni anglash mumkin.

Shunga ko‘ra gap bo‘laklarini ikki turga ajratamiz:

- 1) **bosh bo‘laklar;**
- 2) **ikkinchi darajali bo‘laklar.**

Bosh bo‘laklar gapning grammatik asosini tashkil qiladi.

Fikr, asosan, gapning grammatik asosi orqali ifodalab beriladi. Ikkinchi darajali bo‘laklar gapning grammatik asosini tashkil qilmasdan ham, uni hajm



jihatdan kengaytiradi yoki soʻz birikmasini shakllantirish uchun xizmat qiladi. Ikkinchi darajali boʻlaklar bosh boʻlaklar bilan yoki oʻzaro tobe aloqada boʻladi va ularni izohlash, aniqlash, toʻldirish uchun xizmat qiladi. Bosh boʻlaklar ega va kesimdan iborat boʻladi. Ikkinchi darajali boʻlaklar esa aniqlovchi, toʻldiruvchi va holdan iboratdir.

1. Ega va uning ifodalanish holatlari. Kesim orqali izohlanadigan fikr predmetni anglatadigan va gapning boshqa boʻlaklariga tobe boʻlmagan bosh boʻlaklarga ega deyiladi. Ega asosan predmet tushunchasini bildiradi, kesimdan anglashilgan predikativ belgining kimga yoki nimaga qarashlilikini koʻrsatib keladi. Ega bosh kelishikdagi birliklar bilan ifodalanadi va kim? nima? qayer? soʻroqlaridan biriga javob boʻladi. Ega, odatda, yakka soʻz: ot, harakat nomi, olmosh, otlashgan soʻz (sifat, son, olmosh, ravish, taqlid soʻz, undov soʻz, sifatdosh, ravishdosh, modal soʻz) bilan ifodalanadi.

2. Kesim va uning ifodalanish holatlari. Ega anglatgan predmetning predikativ belgisini ifodalaydi va ega haqidagi hukmni bildiradigan bosh boʻlaklarga kesim deyiladi. Kesim oʻzida predikativlikni aks ettirib keladigan va gapni grammatik jihatdan shakllantiradigan bosh boʻlak hisoblanadi. Kesim ifoda materialiga koʻra yaʼni qaysi soʻz turkumi bilan ifodalanishiga koʻra ikki turga ajratiladi: 1) feʼl kesim; 2) ot kesim.

Feʼl kesim. Turli feʼl shakllari bilan ifodalanadigan kesimga feʼl kesim deb ataladi: Yoʻl chetida zargʻaldoqlar sayraydi. (P.Q.). Feʼl kesim baʼzan frazeologik ibora bilan ham ifodalanishi mumkin: Togʻ etagida qishloqning mirzateraklari elas-elas koʻzga tashlanadi. (P.Q.).

Ot kesim. Feʼldan boshqa soʻz turkumlari (ot, sifat, son, olmosh, ravish, undov) bilan, shu bilan birga, feʼlning harakat nomi shakli bilan ifodalanadigan kesim ot kesim deb ataladi.

Yozuvda baʼzan kesim bilan ega orasida tire ishlatiladi. Bu asosan quyidagi holatlarda sodir boʻladi:

1. Kesim ot, olmosh, son bilan ifodalanib, -dir affiks bogʻlamasi qoʻllanilmaganda: Mehnat - hurmatning toji. (Maqol). Toʻrt karra toʻrt - oʻn olti.

2. Gapning egasi yoki kesimi, yo boʻlmasa ham egasi, ham kesimi harakat nomi bilan ifodalanib kelganda, -dir bogʻlamasi boʻlmasa: Bekor yurish – illatning onasi, gʻurbatning makoni. («Tafakkur gulshani»). Tilni bilish – dilni bilish (Maqol).

3. Ega koʻrsatish olmoshi bilan ifodalanib, kesim tarkibida affiks bogʻlanmagan holatda: Bular – koʻm-koʻk dov-daraxtlar. (K.Yashin).

Toʻldiruvchi va uning ifodalanishi. Boshqaruv yoʻl bilan gapning biror boʻlagiga tobelanib, uning maʼnosini toʻldirish uchun xizmat qiladigan gap boʻlagi toʻldiruvchi deyiladi. Boshqaruvchi soʻzning talabiga koʻra toʻldiruvchi



tushum, jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishigidagi so'z yoki ko'makchi bilan ifodalanadi. Masalan: Ilmni mehnatsiz egallab bo'lmaydi. (Maqol.) Keltirilgan misolda (ilmni) tushum kelishikli so'z bilan ifodalangan va u kesimga boshqaruv yo'li bilan bog'langan. To'ldiruvchi ot, sifat, olmosh, son, harakat nomi otlashgan sifat, sifadosh, ravish, taqlid so'z va undov so'zlar bilan ifodalanadi.

Aniqlovchi va uning ifodalanishi. Predmetning turli belgilarini, bir predmetning ikkinchi predmedga qaratilganini bildiruvchi ikkinchi darajali bo'laklar aniqlovchi deyiladi. Aniqlovchi qanday? qanaqa? qaysi? qancha? kimning? nimaning? qayerning? so'roqlaridan biriga javob beradi. Masalan: Oq, sariq, qizil, rang-barang chirmoviqlar, tikanli gullarning hammasi shudring bilan top-toza yuvilgan (O.Y.) Aniqlovchi asosan, otga bog'lanib keladi. Aniqlovchi qanday ma'no fodalashiga ko'ra uch xil:

- 1) sifatlovchi
- 2) qaratqichli
- 3) izahlovchi bo'ladi.

Hol va uning ifodalanishi. Ish-harakatning belgisi, qay tarzda bajarilishi, sababi maqsadi va uning bajarilishi bilan bog'liq bo'lgan o'rin va payt munosabatini bildirgan gap bo'lagi hol deyiladi. Qay tarzda? qay holada? qayerda? qayerga qayerdani qachon? kabi so'roqlardan biriga javob beradi. Hol ravish, ravishdosh, jo'nalish, chiqish, o'rin payt kelishigidagi ot yoki ko'makchili ot bilan, taqlidiy so'z va son bilan ifodalanadi. Hol vazifasida keluvchi so'z turkumi, asosan, ravishdir.

Masalan: Tong chog'i tun bilan kunduz uchrashdi, Tunda armon bilan yulduz uchrashdi. (U.A.) Ravishdoshning ham asosiy vazifasi gapda hol bo'lib kelishdir. Masalan: G'ulomjon qishloqda bo'lgan voqealarni oqlamay tomizmay so'zlab berdi. (M.I.) Hol ma'no xususiyatiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi: ravish holi, payt holi, o'rin holi, sabab holi, maqsad holi, daraja - miqdor holi.

Gap bo'laklari - gap tuzilmasida muayyan so'roqqa javob bo'lib ma'lum bir sintaktik vazifani bajaruvchi so'z va so'z birikmalaridir. Gap bo'laklari boshlang'ich sinflarda 3-sinf 1-qismida ham berilgan.

75-sahifa

Gapda so'zlar ma'nosiga ko'ra ma'lum bir vazifani bajaradi. Mustaqil ma'noga ega so'z gap bo'lagi deyiladi.

Diyora uni o'zining kutubxonasiga olib kirdi gapida fikrni o'ziga qaratayotgan bo'lak Diyora bo'lsa, u haqda fikr bildiruvchi bo'lak olib kirdi so'z birikmasidir.

Bu qoidalarga mos ravishda darslikda tahlil qilib, mavzuni mustahkamlash uchun matnli mashq berilgan.

76-sahifa 92-mashq. Diqqat bilan o'qing va ko'chiring.



“Quyosh chor atrofga yoyildi. Xadicha onasi bilan buvisini ko‘rishga boradigan bo‘ldi. Qizaloq ichkariga kirmay, betartib bo‘lib yotgan oyoq kiyimlarni tartib bilan taxladi. Ichkaridan chiqib kelayotgan buvisi nevarasining ishini ko‘rib, miyig‘ida kuldi. «Olmaning tagiga olma tushadi-da», - dedi.”

Gap bo‘laklarini tahlil qiling. Qaysi gap bo‘laklari gapning asosini tashkil etgan?

Namuna: Quyosh chor atrofga yoyildi.

Quyosh yoyildi - gapning bosh bo‘lagi;

Chor atrofga - asosiy mazmuni to‘ldirgan bo‘lak

O‘quvchilarga mavzuga doir mashqlar asosan she‘r va matnlar orqali berilgan. Gap bo‘laklari haqida umumiy ma‘lumotlar berilganidan so‘ng uning turlari bo‘yicha qoidalar berilib borilgan.

Gapning asosiy mazmunini tashkil etgan gap bo‘laklari bosh bo‘laklardir. Asosiy mazmuni to‘ldirish uchun xizmat qiladigan bo‘laklar ikkinchi darajali bo‘laldir.

Masalan: bilimli bola charchashni bilmaydi.

bola, bilmaydi-bosh bo‘laklar

bilimli, charchashni-ikkinchi darajali bo‘laklari

O‘quvchilar yangi bilimlarni yanada yaxshi o‘zlashtirib olishlariga matn asosida tahlil qilish uchun mashqlar berilgan.

Masalan: 81-sahifa 98-mashq. Berilgan gaplarni diqqat bilan o‘qing.

Yillar o‘tib, o‘sha juldurvoqi kiyimli bola yaxshi o‘qidi. O‘z taqdirini o‘zi hal qildi. U mashhur rassom bo‘lib yetishdi. Mamlakatdagi eng boy odamlardan biriga aylandi. O‘ziga munosib bir qasr qurdirdi. Qasr hamda uning ichidagi xazinani ko‘rishni hamma istardi

1. Qaysi so‘zlar gapning asosiy mazmunini bildiriyapti?

2. Qaysi so‘zlar gapning asosiy mazmunini to‘ldirishga xizmat qilyapti?

3. Har bir gapdagi so‘zlarni namunadagidek tahlil qilib, o‘rganib chiqing va daftaringizga yozing.

Namuna: bola, o‘qidi - gapning asosi;

yillar o‘tib o‘sha juldurvoqi kiyimli (bola),

yaxshi (o‘qidi) - asosiy mazmuni to‘ldirgan so‘zlar

### 83-sahifa

Ega va kesim gapning bosh bo‘laklaridir. Ular birgalikda gapning asosini tashkil etadi. Gapning kim yoki nima haqida aytilganini bildirgan bo‘lak ega deyiladi. Eganing tagiga bir to‘g‘ri chiziq ( \_\_\_\_\_ ) chiziladi.

Gapning egasi nima qilganini bildirgan bo‘lak kesim deyiladi. Kesimning tagiga ikki to‘g‘ri chiziq (=====)chiziladi.

Ushbu qoidaga mos tarzda bolalar uchun ham qiziqarli ham samarali mashqlar berilgan.

83-sahifa 100-mashq. Uch guruhga bo‘linib, gaplar tuzing.

**1-guruh Ega** (Kim? Kimlar?) o‘quvchi o‘qituvchi director

**2-guruh Ega** (Nima? Nimalar?) sandiq kitob yulduz

